

“Ya bintiy” (Ey qizim) kitobi muallifi Misrlik mashhur olim, o‘zining bir qancha asar va maqolalari hamda uzoq yillik qozilik faoliyatidagi hikmatga boy so‘zlari, hikoyalari va amallari bilan tanilgan Ali Tantoviy rahmatullohi alayh (1909-1999) bo‘ladilar. U kishining qizlari balog‘atga yetganda zavjalariga bozordagi eng qimmat ro‘molni olib berishni buyurganlar. O‘shanda olib kelingan ro‘molning narxi u zotning bir oylik maoshidan ham ko‘proq edi. Qizlari ro‘mol o‘rashdan uyalmasliklari, aksincha boshqalar ularning o‘rnida bo‘lishni orzu qilishlari uchun shunday qilganlar. Alloh u zotni O‘z rahmatiga olsin!

Ey qizim! Bu maktubimni o‘qiyotganingizda necha yoshda bo‘lasiz, bilmayman. Nima bo‘lganda ham so‘zlarimga diqqat bilan e‘tibor bering. U vaqtlarda sizga bu gaplarni aytgani sharoit bo‘lmasligi mumkin. Vaqtim va imkoniyatim borida yozib qo‘yyapman. Har bir gapimni chin qalbdan qabul qiling. Luqmoni Hakim o‘g‘illariga nasihat qilganchalik hikmat bilan nasihat qilolmasam ham, Alloh ilhom qilganicha harakat qilaman. Men bilamanki, har bir qiz uchun otaning gaplari juda ulug‘ turadi. Agar u xossatan maktub shaklida bo‘lsa, ta‘siri yanayam kuchliroq bo‘ladi.

Ey qizcham! Sizga birinchi aytadigan nasihatim, Allohdan qo‘rqing! Hamma narsa Uning qo‘lida, barcha kuch-qudrat sohibi U, barcha yaxshilik va yomonlik Uning izni bilan bo‘ladi. Agar Allohdan qo‘rqsangiz, boshqa hech narsadan qo‘rqmaysiz. Agar Allohdan qo‘rqmasangiz, hamma narsa siz uchun qo‘rqinchli bo‘ladi. Qizalog‘im, hech kimga ikkita qo‘rquv berilmaydi. Bu dunyoda Allohdan qo‘rqmaganlar oxiratda qo‘rquvda bo‘lishadi, bu dunyoda qo‘rqanlar oxiratda xotirjam bo‘ladi. Siz ikkinchi toifa bo‘ling.

Ey qizcham! Men sizga Luqmon surasidagi uning o‘g‘liga qilgan nasihati bilan nasihat qilaman, o‘g‘ilcham degan joylarini qizcham deb o‘qing:

“Luqmon o‘g‘liga va‘z-nasihat qilib aytganlarini esla: Ey o‘gilcham! Allohga shirk keltirma. Albatta, shirk katta zulmdir!” (13-oyat).

“Ey o‘gilcham! Namozni to‘kis ado qil, yaxshilikka buyurib, yomonlikdan qaytar va o‘zinga yetgan musibatga sabr qil. Albatta, bular azm etilajak ishlardandir. Odamlardan takabburlik ila yuz o‘girma va yer yuzida kibr-havo ila yurma. Albatta, Alloh hech bir mutakabbir va maqtanchoqni sevmas. Yurishingda mo‘tadil bo‘l va ovozingni pasaytir...” (17-18-19-oyatlar).

Ey qizcham! Siz xuddi tongda gul yaprog‘iga qo‘ngan shabnamdek top-toza, beg‘uborsiz. Yuzingizga hali gard qo‘nmagan, to‘lin oydek, gunohsiz farishtadeksiz. Men doim shu holda qolishingizni xohlayman. Shaytoniy sifatlardan, katta-yu kichik gunohlardan, asosiysi jahannam o‘tidan sizni qizg‘onaman. Oxiratda darajangiz ulug‘ bo‘lsa-yu men pastdan bo‘lsa ham sizga faxr bilan qarab tursam deyman. Firdavs jannatlariga eson-omon yetib olsangiz-u, men butun umrga sizdan xotirjam bo‘lsam, deb orzu qilaman.

Ey qizcham! Umringiz suratini o‘z qo‘lingiz bilan chizasiz. Uni qanchalik chiroyli chizsangiz qiyomatda shuncha ko‘p rohatda bo‘lasiz. Chizgan hayot rasingizni ko‘rib otangiz ham quvonchga to‘ladi. Sizga yomonlik istagan odamlarga parvo qilmang, ular ham o‘z hayotlarini o‘zlari chizishyapdi. Har kim o‘zi xohlagandek chizishga haqli. Faqat oxirida hammasini mukofoti bor.

Qizalog‘im, ko‘zimning qarosi, jajji farishtam, sizni katta bo‘lganingizda bunday gaplar bilan erkalashga balki tortinchoqlik qilarman. Hozir yozib qo‘yyapman, katta bo‘lganingizda o‘qib, bilib qo‘yaverasiz.

**Ey qizim! Men bu maktubim orqali siz haqingizda ba'zi narsalarni yozaman.**

Hozir bir yoshdasiz. Qadam bosib yurishga oshiqyapsiz, lekin hali mustaqil yurganingiz yo'q. Tilingiz ancha chiqib qoldi. Birinchi o'rgangan so'zingiz harflari marjondek terilib, "da-da" bo'lib chiqyapdi. Ikkinchi o'rgangan so'zingiz unchalik tiniq bo'lmasa ham "Alloh" degan so'z bo'ldi. Aslida bunisi birinchi chiqishi kerak edi, mayli dadangizni yaxshi ko'rganingizdan birinchi dada devordiz. Alloh tilingizga ham dilingizga O'zining go'zal ismlarini joylasin! Lug'at boyligingiz kundan kunga ortib boryapdi. Ona, buva, opa, amma kabi oson talaffuzli so'zlarni bemalol aytyapsiz. Yangi-yangi shirin qiliqlaringizni yozmadim, ko'z tegib ketmasin.

Bugun sizga buvijoningiz tezroq yurib ketsin deb bozordan oyoq kiyim olib keldi. Qadamlaringiz yaxshilik bilan boshlanib, to Sirot ko'prigidan o'tguningizcha yaxshilikda davom etsin! Ilmda, taqvoda, sabrda sobitqadam bo'ling!

Ey qizim! Siz bizga Xudo bergan buyuk ne'matimizsiz. Buning shukrini ado qilib tugatolmaymiz. Shuning bilan birga, biz uchun omonatsiz. Alloh sizni farishtadek pok holda berdi, biz ham sizni xuddi shunday topshirishimiz kerak, aks holda omonatga hiyonat qilgan bo'lamiz. Shu tufayli sizni eng zo'r tartibda, eng yuksak holatda tarbiya qilishimiz zarur. Ba'zan moddiy tomondan kamchilikka yo'l qo'ysak ham, ma'naviy tomondan kam qilmaslikka harakat qilamiz.

Ey qizim! Ota-onangiz yetmagan darajalarga yeting. Qur'on va hadisda maqtalgan buyuk ayollar bilan qiyomatda birga bo'ling. Maryam, Osiyo, Hadija, Oisha va Fotima onalarimizga o'xshashga harakat qiling. Olima bo'ling, olimlarga ona bo'ling. Ko'zingiz faqat Allohning yo'lida yoshlansin.

Ey qizim! Ota-onaning farzandga qilgan duosi payg'ambarning ummatga qilgan duosi bilan tengdir. O'z mavqeyimda duoyim qabul bo'lmagan taqdirda ham, sizning otangiz sifatida duolarim qabul bo'lishiga ishonaman. Siz menga ishonib, Allohning "Ijobat qilaman" degan So'ziga ishonib. Sizning va mening Parvardigorim pokiza niyatlarni ro'yobga chiqaruvchi zotdir! Hammasini Allohga topshiring!

**21.05.2017**

Ey qizim! Rasululloh sollallohu alayhi vasallam do'zax ahli ichida ayollar erkaklardan ko'proq bo'lishini xabarini berganlar. Buning sababi tillarini g'iybat va la'natdan tiymaslik va erlariga itoat qilmasliklari bo'lar ekan. Siz o'shalardan bo'lib qolmang, bu illatlardan saqlaning. Nomigagina saqlanmang, ulardan xazar qiling. G'iybatning sharpasi sezilsa, do'zax olovini eslang.

Ey qizim! Juda ko'p ayollar g'iybat balosiga muftalo bo'lishgan. Birortasini kamchiligini gapirib o'tirmasa nafas yetmayotgandek bo'lishadi. Hech qachon yodingizdan chiqarmang, bir insonning aybini u yo'q bo'lgan majlisda gapirish – g'iybat bo'ladi. Agar o'zi bor bo'lsa izza qilish, uyaltirish bo'ladi. Har ikkisidan ham uzoq bo'ling! Faqat uch holatda g'iybat qilish mumkin:

1. Ahlini yomonlikdan ogohlantirish uchun
2. Mazlumning zolimni g'iybat qilishi
3. Katta gunohlarni ochiqchasiga qilib yuruvchi (fosiq)ni g'iybat qilish.

Ey qizim! Birovning nuqsonini gapirishdan nima foyda? Bu bilan uning aybi kamayib qolmaydi, ammo sizning aybingiz ko'payadi. Biz bu dunyoga odamlarga baho bergani kelmaganmiz. Hisob qiluvchi Zot hisob qilib oladi, siz hech kimni hisob qilmang, xulosa chiqarmang, ustidan hukm o'qimang. Siz odamlarning ustidan qozi emassiz. Kimni g'iybat qilsangiz uni savoblarinigiz bilan bahramand qilib, uning yelkasidagi gunohlariga sazovor bo'lasiz. Hujurot surasining 12-oyatida esa g'iybat qilish o'likning go'shtini yeyish bilan bir xil ekanligi zikr qilingan.

Ey qizim! G'iybat majlislaridan uzoq bo'ling. Chunki uni tinglash ham gunoh. Agar u yerni tark qilinmasa g'iybat qilganlar bilan barobar gunohkor bo'ladi. Ikki kishilikmi, o'n kishilikmi, g'iybat aralashgan har qanday majlisdan uzoqlashing. U yerda qolishga majbur bo'lsangiz, ularni g'iybatdan qaytaring. Nasihatingizni olishmasa, qulog'ingizga naushnik taqib oling.

Ayollarda ko'p uchraydigan yana bir illat – la'natlash. O'lgur, falon bo'lgur, oyoq-qo'ling singur, itdan tarqagan, yana bir balolar deb tashlashadi, nima deytog'ani o'zlari bilishmaydi. Bu so'zlar havoga uchib ketmaydi, amal daftariga yozilib, qiyomatda do'zaxga yuztuban holda sudralishlariga sabab bo'ladi. Agar oxiratdan umidingiz bo'lsa, hech kimni la'natlamang, hech kimni so'kmang. Yomonlarni haqqiga Allohdan insof so'rab duo qiling. Tilingiz faqat yaxshi so'z aytsin, bo'lmasa jim bo'lsin. Shundagina dunyo-yu oxiratda najot topasiz, inshaalloh!

Ey qizim! Hozirgi paytda ayollar muhtalo bo'lgan og'ir dardlardan bittasi serial ko'rish, yana biri sevgi haqida qo'shiqlar tinglash bo'lib qoldi. Ikkalasida ham diyonat uchun katta zarar bor. Chet el seriallari odamlarimizning tarbiyasini, tushunchasini, hattoki e'tiqodini buzmoqda. Sevgi uchun ota-onaga qarshi chiqish, eriga hiyonat qilish, nikohsiz holda har xil noma'qul ishlarni qilish ijobiy qahramonlar tomonidan amalga oshiriladi. Ayollar esa gohida namozini ham unutib o'sha seriallarga mahliyo bo'lishmoqda. Maktab yoshidan boshlab qizlar shaytonning nag'malarini tinglashga ruju qo'yishgan. Pok sevgi niqobi ostida uyatsiz narsalarni targ'ib qiluvchi kuy-qo'shiqar yoshlarning butun miyasini egallamoqda. Ey qizim! Siz bulardan yiroq bo'ling. Sevgi haqidagi qo'shiq va seriallarga qiziqmang. Hammasini shayton ko'zga chiroyli ko'rsatib, gunoh bo'ladigan his-tuyg'ularga boshlaydi. Bilib qo'ying, nomahram erkakni ko'r-ko'rona sevib qolish shaytondandir. Rahmoniy sevgi faqatgina nikoh orqali paydo bo'ladi.

Ey qizim! Yoshim o'ttizga borib qoldi. O'rtacha umrning yarmini bosib o'tib bo'ldim. Har xil odamlarni ko'rdim, shaytonning har xil hiylalariga yo'liqdim. Odamlarning fe'l-atvorlariga sabr bilan muomala qilish kerakligini, shayton esa to o'lgunimizcha har tomondan adashtirish uchun nayrang uyishtirishda tinmasdan ter to'kishini angladim. U insonning yoshiga, jinsiga, iqtisodiy holatiga, ilmiga va boshqa sifatlariga qarab hiyla uyushtirishdan tinmaydi. Avvalo shaytonning yomonligidan Allohdan panoj so'rang, hidoyat so'rab duo qiling. Har bir holingizda shayton hiylasidan xushyor bo'ling. Nomahram erkak sizga muloyim gapirayotgan bo'lsa, aniqki bu – shaytonning hiylasidir. Nomahram yigit va qiz gaplashishi har qanday turda bo'lsa ham shaytonning fitnasidir. Men bu gapim bilan yigit va qiz suhbatni yomon niyatda boshlashadi demoqchi emasman. Biroq ular shaytonga hiyla qilish uchun eng qulay vaziyatni tuxfa qilishgan bo'ladi. Suhbat davomida asta-sekin ularni avvalo qalblarini vasvasa qiladi. Bu vasvasa birotdan keyin so'zlarga o'tib, ularga tabassum aralashadi. So'zlarning ma'nosi o'zgara boshlaydi. Kundan kunga ular zaruratsiz ham gaplashadigan bo'lib qolishadi. Shayton ularga chiroyli qilib ko'rsatadigan qalbdagi bir huzurni tuyishadi va buni mehr qo'yish, do'stlik, oxir-oqibat sevgi deb tushunishadi. Bunday qalbdan Allohning muhabbati chiqib ketadi. Ey qizim! Siz bu hiylalarning birinchisidayoq ularning tomirini kesing. Qalbingizda bunday narsalar tomir otishiga yo'l

qo'ymang. Hozirgi kunda tarjima qilinayotgan seriallar va "ijod" qilinayotgan ko'p qo'shiqlar insonni o'sha vasvasalarga targ'ib qilayotganligi uchun men sizni ulardan qaytaraman.

09.01.2019

Ali Tantoviy rohimahullohning "Ey qizim" risolasidan parcha.

"Ey qizim! Men yoshi ellikka borgan bir kishiman. Yigitlik halimlik va qo'rquvni va'da qilgan holda uzoqlarda qoldi. Men ko'p odamlarga yo'liqdim, dunyodan xabardor bo'ldim. Yoshim kattaligi va tajribamga ko'ra mendan aniq-sog'lom so'zni tinglang, uni boshqalardan eshitmagansiz.

Darhaqiqat, biz kitoblar yozdik va ahloqlarni qoim qilishga, fasodni va shahvatning yomonligini ketkazishga chaqirdik, hatto qalamlar mendan bezib ketdi, tillar toliqdi. Hech narsani uddalay olmadik, munkar ishlarni yo'q qilolmadik. Aksincha, yomon ishlar ziyoda bo'ldi, fasod keng yoyildi. Ochiq-sochiqlik, yarim yalang'ochlik o'z ishini kuchaytirdi, doirasini kengaytirdi, shahardan shaharga ko'chib o'tdi. Biz ham undan najot topmadik, yaqin orada najot topishimiz dargumondir. Bilasizmi, nima uchun? Chunki biz shu kungacha isloh eshigini topolmadik, islohning yo'lini bilmadik. O'sha isloh eshigi sizning ro'parangizda ekan, eshikning kaliti esa sizning qo'lingizda ekan. Agar u eshikning borligiga amin bo'lib, undan kirishni uddalasangiz holat isloh bo'ladi. (Ya'ni, qizlar yaxshi tarbiya olsa, yomonliklar isloh bo'ladi – tarj.)

Albatta, gunoh yo'lga birinchi qadamni bosuvchi erkakdir, hech qachon ayol avval qadam bosmaydi. Lekin, ayol rozi bo'lmasa erkak qadam bosmaydi, ayol yumshoq muomala qilmasa erkak harakat qilmaydi. Ayol unga eshikni ochsagina kirishi mumkin. O'g'riga eshikni ochib, "marhamat" deydi, keyin "meni zo'rladi" deb ayyuhannos soladi.

Bilsangiz, barcha erkaklar bo'ridir, siz qo'y kabisiz. Qo'y bo'ridan qochganidek ulardan qoching. Hammasi o'g'ridir. Bo'ri qo'ydan faqat go'shtini xohlaydi. Erkak kishining sizdan xohlaydigan narsasi qo'yning go'shtidan azizroq, yomonligi esa o'limdan qattiqroqdir. Uning sizdan xohlaydigan narsasi siz uchun sharaf va faxr bo'lgan iffatingizdir. Erkak kishi tarafidan iffat sababli musibat yetkazilgan qizning hayoti bo'ri tarafidan go'shti sababli musibat yetkazilgan qo'yning o'limidan yuz marta qattiqroqdir...

(Ojizona tarjima. Davomi bor...)

"Allohga qasamki, yigit ayol kishini xayolan yechintirib, kiyimsiz holda tasavvur qiladi. Qizlarni oldida faqat odob-axloqli bo'lib ko'rinadigan, ularga chiroyli muomala qiladigan va ayollar ularning "mehr"iga uchadigan ba'zi kishilarning gaplarini siz to'g'ri deb bilmang. Allohga qasamki, yolg'on! Yigitlarning o'zlari holi qolganda gaplashadigan so'zlarini eshitganingizda, shubhasiz qo'rqinchli narsalarni eshitingiz. Yigit sizga tabassum qilishi, so'zini muloyim qilishi va o'z xizmatini taqdim qilishi faqat bir maqsad bilandir. Uning bu harakatlarida bir tayyorgarlik va noto'g'ri tasavvur uyg'otish bilan o'ziga chorlash niyati bordir. Shundan keyin nima bo'ladi, ey qizim, fikr qiling! Bir lahzalik rohatda ayol unga sherik bo'ladi. So'ngra erkak uni unutadi, ayol esa u ishning g'am-g'ussasini tortgan holda abadiy xor bo'ladi. Erkak hech narsa bo'lmagandek o'tib ketadi, boshqa

**bir g'ofil qizni nomusini o'g'irlash uchun qidirishga tushadi. Ayolni qo'rnida xomilani ko'tarib, aziyatini jismi his qilib, yelkasiga sharmandalikni yuklagan holda tashlab ketadi. Bu zolimni jamiyat kechirib yuboradi, "Yoshlikda adashib, so'ng tavba qildi" deyishadi. Ayol esa hayoti davomida or-nomus va uyat iskanjasida qoladi, jamiyat uni hech qachon kechirmaydi.**

**(Xavaskor tarjimon)**